

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi yo'nalishi 445-guruh talabasi
Homidova Hamidaning

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Huvaydo she'riyatida ishq mavzusi va oshiq obrazi

Ilmiy rahbar:

H. Jo'raev,
filologiya fanlari doktori

Farg'ona - 2013

R E J A :

K i r i s h

1 BOB. Tasavvuf va adabiyot.

1-fasl. Islomiy qadriyatlarning so'fiylik talqinlari.

2-fasl. Huvaydo Yassaviy izdoshi sifatida.

II BOB. Shoir ijodining mavzular ko'lami.

1-fasl. Ilohiy ishq va badiiy-falsafiy qarashlar.

2-fasl. Oshiq obrazi va komillik masalalari.

X u l o s a

Kirish

Adabiyotimizning, xususan, ota-bobolarimizning tafakkur mevalari bo'lmish adabiy merosning hozirgi va kelgusi avlodlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga mustahkam zamin ekanligi haqida haqli ravishda ko'p ta'kidlangan.

Mamlakatimizda komil inson, barkamol avlod tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yosh avlodni har tomonlama mukammal va yetuk qilib tarbiyalash borasida maxsus dastur hamda rejalar ishlab chiqilib, ular hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Albatta, barkamollikning bosh omili ma'naviy yuksaklik, axloqiy go'zallikdir. Bu masalani islomiy qadriyatlar hamda tasavvuf ta'limoti mohiyatidan kelib chiqib izohlasak, ular biz uchun eng yaqin va boy manba ekanligiga guvoh bo'lamiz.

“...Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifadir”.¹ deya ta'kidlaydi Yurtboshimiz. Shunday ekan, har bir millat, xalq va mamlakatning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rni uning dunyo ilm-fani, san'ati va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi bilan birga ota-bobolari tomonidan qoldirilgan adabiy va madaniy merosning ahamiyati bilan ham o'lchanadi va qadrlanadi. Ana shu nuqtai nazarga ko'ra o'tmishga nazar solsak, ko'hna Turonning buyuk tarixiy ijodkorlari beqiyos adabiy-madaniy meros qoldirgan dunyodagi eng ilg'or mamlakatlardan biri ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

Tasavvuf maslagi insonning basirat ko'zini Ruh va Ko'ngil olamiga qaratdi. Nafsni yengish orqali go'zal axloqqa erishish tajribasini o'rgatdi. Bular she'riyatning maqsad va qiziqishlariga muvofiq keladigan haqiqat va holatlar edi. Tariqatga mansub shoirlar o'z fikr-qarashlarining targ'ibi uchun dastlabki davrlarda she'rning kichik janrlariga, xususan, ruboiy janriga murojaat etgan

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent. O'zbekiston. 1997. B. 137.

bo'lsalar, tasavvuf ta'limoti quloch yoygan sari boshqa she'riy janrlarga ham murojaat qila boshladilar.

Tasavvuf badiiy ijodni yangi g'oya, tushuncha va tuyg'ular bilangina emas, oshiq, orif, darvesh, faqr, eran singari qahramonlar – obrazlar bilan ham boyitdi va ularni komil inson ideali atrofida birlashtirdi.

Afsuski, yetmish yildan ziyodroq davom etgan sho'rolar hukmronligi davrida ana shu qutlug' meros ta'qib va taqiqlarga duchor bo'ldi. Tahlil va tadqiqotlar uchun tanlab olinganlari ham bir yoqlama tushuntirildi va g'oyaviy jihatdan zararli ekanligini isbotlashga harakat qilindi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tarix uchun nisbatan qisqa fursat ichida o'tmish adabiyotimiz va tarixiy asarlarimizni o'rganishda to'g'ri va xolis yondashuv ustuvor tekshirish usuliga aylanmoqda. Yurtboshimiz I.A. Karimovning “Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib boradi.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim”² degan fikri milliy qadriyatlarimizning davr, zamon, istiqlol mezoni asosida tadqiq etishni taqozo etadi. Prezidentimiz tilga olgan falsafiy-axloqiy ta'limotlar hamda qadriyatlar safiga Istiqlolgacha bo'lgan yaqin o'tmishda mohiyati “diniy-mistik”, “reaksion” sifatida qoralangan, keng ommadan sir tutilgan Yassaviy izdoshlari va ular tomonidan yaratilgan adabiy-madaniy merosimizni ham qo'shish mumkin. Ular jumlasiga biz ilmiy tahlil va tekshirish ob'ekti qilib olgan Huvaydo adabiy merosi ham taalluqlidir.

Madaniyat va ma'naviyatimiz tarixida XII asrdan boshlangan va XVI asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davr Yassaviy an'analari beqiyos

² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. O'zbekiston. Toshkent. 1996. B. 7-8

sermahsulligi, shu davrda xalqimiz ko'plab tasavvuf va adabiyot namoyandalarini insoniyatga tortiq etganligi alohida e'tiborga loyiq. Bu davrda diniy va tasavvufiy ruhdan oziqlangan fors va turkiy tillarda yaratilgan durdona asarlardan ham forsiyzabon, ham turkiy tilda so'zlashuvchi kitobxonlar bir xilda ma'naviy oziq oldilar.

Turkiy adabiyotda Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'lanuvchi hikmatlar paydo bo'lib, keng omma orasida tarqala boshladi. Bu ulug' siymo faqat yangi tariqat yaratuvchisi sifatida emas, balki turkiy tasavvuf she'riyatining birinchi ijodkori sifatida ham betakror tarixiy vazifani amalga oshirdi.

Ijtimoiy turmushning bugungi va ertangi hayoti qay yo'ldan bormog'i lozimligini aniqlash va rejalashtirish uchun kechagi kunga, aniqrog'i o'tmishga nazar tashlash har qanday fan mutaxassislariga uchun sinalgan haqiqatdir. Shunga ko'ra tarixiy, adabiy va madaniy merosimizning o'rganilmagan yoki nisbatan kam varaqlangan sahifalariga zehn solish, ularni Istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan xolis ilmiy tadqiq etish, ulardan ibrat saboqlarini o'rganish – bugunning qadriga yetish va kelajakning izchil taraqqiyot yo'nalishini aniqlash uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Istiqlol sharofati ila ana shu boy adabiy-ma'naviy merosimizni qanday bor bo'lsa shu holicha o'rganish, ilmiy jihatdan xolis tahlil etish va xalqqa taqdim etish imkoniyati yanada kengaydi: "...Buyuk ajdodlarimizning bebaho merosini tiklash, qadr-qimmatini joyiga qo'yish, ularning qadamjo va ziyoratgohlarini obod qilishdek baxt siz bilan bizga nasib etganidan har birimiz haqli ravishda faxrlanamiz"³ Yurtboshimizning ana shu ko'rsatmalariga javoban bugungi kunda ko'p asrlik ijtimoiy tafakkurimiz hamda adabiyotimiz tarixining mutlaqo o'rganilmagan yoki yaxshi ochib berilmagan qirralarini ko'rsatib berish, biryoqlama talqin qilingan jihatlarini yangicha va xolislik bilan nazardan o'tkazish davr talabiga aylandi. Chunki Yassaviy va uning izdoshlari merosiga yaqin o'tmishda – sho'rolar hukmronligi davrida hokim mafkura ta'sirida bir yoqlama yondashildi, kamsitildi va taqiqlandi. Birgina misol: bir necha o'n yillar

³ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-tom. Toshkent. "O'zbekiston". 2001. 130-bet.

davomida oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida foydalanilgan prof. Natan Mallaevning "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida Ahmad Yassaviyga oid bittagina jumla bor. Ammo shu birgina jumlada ham hukm, ham kamsitish, ham bir yoqlama xulosa mujassamdir. Mana o'sha jumla: "Ahmad Yassaviy... diniy mistik adabiyotning namoyandasi bo'lib, uning asarlari, asosan, din va tasavvufni targ'ib qiladi, kishilarni feodal zulmga tobe bo'lishga, "u dunyo" uchun hayotning baxt-saodati, noz-ne'mati va shodligidan voz kechishga chaqiradi."⁴

Xalqimiz ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar tarkibida yashab kelayotgan islom dini va ta'limoti, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy hayotimizda asosiy tayanch bo'lgan tasavvufga oid merosimiz yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin jamoatchilik o'rtasida yana o'z munosib o'rnini topa boshladi.

Ulug' mutasavviflarga nafaqat yurtimizda, balki butun musulmon dunyosida ko'rsatilayotgan ehtirom, ularning bebaho merosiga qiziqish, o'rganishga intilish shundan dalolat beradi.

Tasavvuf ta'limoti qadimgi davrlardan boshlab diniy va dunyoviy bilimlarimizni to'ldirishga, hayotimizni to'g'ri yo'lga solishga xizmat qilib kelmoqda. Insonning ruhiy-axloqiy yuksalishi, ilohiy muhabbat bilan poklanib borishi bu ta'limotning asosiy g'oyalari. Shu bois tasavvufning tarixiy taraqqiyoti, nazariy jihatlarini o'rganish barobarida, mutasavvif shoirlar ijodiy faoliyatini o'rganish ham muhim hisoblanadi.

Ulug' so'fiy va mashhur shoir Ahmad Yassaviy o'zining hikmatlaridan birida qayd etadiki:

*Xushlamaydur olimlar bizni oyg'on turkini,
Oriflardin eshitsang, ochar ko'ngul mulkini.
Oyat hadis ma'nosi turki bo'lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetganlar yerga qo'yar bo'rkini.*

Shuning uchun zamon, vaqt, makon talabi bois turkiy tilda so'zlashuvchi aholi o'rtasida ham so'fiylar va avliyolar meroslariga bo'lgan ehtiyoj o'sib

⁴ Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1976. 109-bet.

borgan. Shu bois valiy zotlarning merosini to'plash, o'rganish, hayotga tatbiq etish davom etgan.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ham "turk piri" ya'ni Yassaviy hazratlaridan o'rnak olishga da'vat etib, quyidagilarni yozgan edi:

*Har kishi komil erur, bas anga Haq bandalig'i,
Mundin o'zga tamai kasbi kamol aylamangiz.*

*Olami foni uchun ranju mashaqqat chekmangiz,
Mol uchun g'am yemangiz, fikri mahol aylamangiz.*

*Turk piri kabi olamdin etakni silking,
Do'stdin g'ayri tamannoi visol aylamangiz.*

Ko'rinib turibdiki, tasavvuf namoyandalari insonning har taraflama yetuk va barkamol bo'lishida uning axloqiga eng muhim omillardan biri sifatida qaraganlar. Bundan tashqari valiyilar va sufiylar hayotiga oid ma'lumotlar, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy hayotimizning, iqtisodiy-maishiy turmushimizning barcha jabhalarini qamrab olganligi ham ularning qadimdan tarbiya dasturi darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Istiqlol bergan ulug' ne'matlardan yana biri shu bo'ldiki, xalqimiz ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan, axloq va odob tarbiyasidan tortib, ijtimoiy hayotdagi muhim muammolargacha qamrab olgan tasavvufiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy qarashlar yana o'zining hayot dasturilamali sifatidagi faoliyatini davom ettira boshladi. Ulug' zotlar haqidagi ma'lumotlar deyarli har bir matbuot nashrida chop etilishiga yo'l ochildi. Pirovardida Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul singari tasavvufshunoslar, Hamidjon Homidiy singari mumtoz merosimiz allomalarining mazkur mavzuga aloqador asarlari ko'p nusxada, joriy alifboda nashr etildi va kitobxonlarga yetkazilmoqda.

So'z san'ati namoyandalari – adib va shoirlarimiz ham davr ruhini aks ettirish, zamonaviy muammolarni badiiy talqin etishda diniy-falsafiy asarlarga tayangan holda umumlashma xulosalar chiqarmoqdalar. Chunki avliyolarning

shaxsiy hayoti, kasb egallash, ilm o'rganish yo'lidagi sabot va matonatlari, zaxmat va riyozatlari, sobit e'tiqodlari barcha zamon kishilari uchun namuna bo'lib kelgan. Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov uqtirganidek:

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar, siz bu kun

Yassaviy xok poyidin aylab oling tummorlar.

Biz mazkur kichik tadqiqotimiz – bitiruv-malakaviy ishimizda Yassaviy maktabining taniqli namoyandalaridan biri, xalqimiz ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o'ziga xos o'rin tutuvchi shayx va shoir Xojamnazar Huvaydo ijodida tasavvuf adabiyoti an'alarining davom ettirilishi, rivojlantirilishi hamda zamonaviylik kasb etishiga oid kuzatishlarimizni bayon etishni maqsad qilib qo'ydik. Chunki Huvaydo she'riyati o'zbek mumtoz adabiyoti, boy madaniyatimiz va tariximizni o'rganishda g'oyat muhim manba bo'lish bilan birga ulkan axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Zero shoirning har bir satrida ogohlikka da'vat, har bir misrasida bemisl hikmat yashirinki, ular barkamol avlod tarbiyasida dasturiy ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv-malakaviy ishimiz kirish, to'rt kichik fasllarni o'z ichiga oluvchi ikki asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1 BOB. TASAVVUF VA MUMTOZ ADABIYOT

1-fasl. Islomiy qadriyatning so'fiylik talqinlari.

San'at, shu jumladan, badiiy adabiyotning birinchi mohiyati – voqelikni qaytadan yaratishdan iborat. Bunday obrazli qayta yaratishda barcha uchun qiziqarli va ahamiyatli jihatni topish san'atning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bu jihatlar esa uch nuqtai nazardan topiladi: go'zallik, fojaviylik, komiklik. Mana shu uch jihat inson qalbini to'lqinlantiradi. Go'zallik deyilganda ijodkor xotirasida voqelikning o'zini namoyon etishi tushuniladi. Shu bois ijodkor biror asar yaratishda voqelikdan o'z ideali va g'oyasiga mos keladigan materialni xotira kuchi yordamida jamlaydi, ularni muayyan izchillikda, o'ziga xos shaklda tasvirlaydi. Ba'zan ijodkor voqelikni shunchaki tasvirlamaydi, balki qalamga olinayotgan voqea-hodisaga o'z munosabatini ham bildiradi. Bu munosabat esa fojaviylik natijasida tug'iluvchi achinish, azoblanish shaklida kechishi mumkin. Chunki fojaviylik hamisha ulug'vor mazmunga ega bo'ladi. Voqelikka munosabatning yana bir ko'rinishi komiklik bo'lib, unda obraz g'oyadan ustun bo'ladi. Komiklik yo hajv, yoki yumor tarzida voqe bo'ladi. Ulardan qay birining ijodkor idealiga mos kelishi yoxud kelmasligi badiiy asarda o'zining ob'ektiv aksini topadi. Shu ma'noda, qalb kechinmalarini, nozik hissiyotlarni lirik pardalarda kuylash, nosoz zamona, el boshiga tushayotgan kulfat hamda tashvishlar, yoki noqisliklar haqida yozish, ijtimoiy muhit hamda ayrim tip va shaxslarning fe'l-atvorlaridagi nuqson va illatlarni achchiq hajv ostiga olish Yassaviy maktabi namoyandalari merosining ham asosiy xususiyatlaridandir.

Eshon, shayx, xo'ja, mullo dunyo izlar,

Ul sababdin podshohlarg'a yolg'on tuzlar.

Oyat, hadis so'zni qo'yib mulni ko'zlar,

Haq yo'lida hargiz mehnat tortqoni yo'q...

*Oxir zamon shayxlar ishi hamma riyo,
Ro'zi mahshar riyolari bo'lg'ay guvoh.*

*Shayx man teku muncha havo, muncha bino,
Ollo uchun zarra javob etkoni yo'q...*

“Haq uchun qilingan ibodat asl hikmat, xalq (birovlar ko'rishi) uchun qilingan ibodat esa riyodir”, deyiladi tasavvuf ta'limotiga oid manbalarda. Jamiyatda tutgan mavqei, diniy lavozimi yoki boshqa biror martabasidan boylik yoki obro'-e'tibor uchun foydalanish diniy-ruhoniyl jihatdan ham, dunyoviy amallarda ham hamma davrlarda qoralangan. Sirtidan farishtasimon ko'ringani bilan, qalbi iymon nuri bilan ziyolanmasa, bunday zotlar kishilar ehtiromiga, Haq marhamatiga loyiq emaslar. Bu mavzu bir necha asrlardan keyin ham o'z mohiyatini yo'qotmaganligini Xojamnazar Huvaydning quyidagi baytlaridan ham anglashimiz mumkin:

*O'zingni sadri majlis qilmakim, bo'lg'ay balo paydo,
Faqiru xoksor o'lsang, bo'lur Haqdin rizo paydo.*

*Falon shayxu falon so'fi degonga bo'lmag'il mag'rur,
Bu shuhratdur sango ofat, qilur nafsing havo paydo...*

Huvaydning ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga yondashishi o'zgacha yo'nalishlarda kechganligi ham shubhasiz. U o'z davri farzandi sifatida islom dini ko'rsatmalari va islomiy aqidalarga tayangan. Buni uning o'zi ham e'tirof etgan. Shoir she'rlarida shunday misralar bor:

*Agar qo'ysang qadam ishq yo'liga, monandi Adham bo'l,
Bo'lib tarki havo dunyo g'amidin kulli beg'am bo'l..*

Tariqi ishq aro mullou shayxu xojalig' yo'qtur,

Huvaydo, oshiq ersang, kamtarini xalqi olam bo'l.

Huvaydo, albatta, oyat hamda hadislarga g'oyaviy, axloqiy, falsafiy maqsadlar yuzasidan o'rni-o'rni bilan murojaat qilgan, ulardan foydalangan.

Eng muhimi, o'zbek adabiyoti tarixida Huvaydo ijodiy maktabidan bahra olib yozilgan asarlar, hikmatnavis shoirlar maydonga chiqdiki, bu ulug' mutasavvif va shoirning adabiy merosi ahamiyatini yanada oshiradi.

Huvaydoning so'fiyona hikmatlarida, g'azal va to'rtliklarida oshiqlar, oriflar, darveshlar, so'fiylar, umuman, ahli dil ulug'lanadi. Ilohiy mahbuba ta'rif-tavsif etilib, hijron va visol xususida so'z yuritiladi, ko'plab tasavvufiy g'oyalar bayon qilinadi. Shoir bu toifaga havas qiladi, ulardan ibrat olishga chaqiradi. Bunday zotlarga ham Haq siri, ham xalq siri ayon deb hisoblaydi, ular Olloh yo'lida ikki dunyoni unutgan zotlar deb qaraydi, o'zi ham ularga ergashadi.

Huvaydoning lirik qahramoni qaysi mavzuda so'z ochmasin, u avvalo sohibdil inson bo'lib gavdalanadi. Ilohiyot borasida ham, dunyo ishlari sohasida ham so'z borar ekan, shoir o'zini hamisha xoksor, oddiy banda ekanligini unutmaydi. Dunyo o'tkinchiligini qayta-qayta eslatib, qisqa umrda nek nom qoldirishga undaydi. Pand-nasihat ruhidagi hikmatlarida ham badiiy ijodning bosh sharti – estetik ta'sirchanlik va badiiy ifoda mezonlaridan yiroqlashmaydi. Uning adabiy merosi, xususan, hikmatlarining ommabopligi, yashovchanligi hamda ta'sirchanligining omillaridan biri ham shundadir.

Mistik shoirlarning g'oyaviy yo'llarini shartli ravishda vujudi mutlaq bilan "Suhbat" yo'li deb atash mumkin. Chunki ularning butun diqqat e'tiborlari vujudi mutlaq – Haqqa qaratilgan. Ular faqat Xudo ishqini tan oladilar.

Ishq deganda sevgi, mehr, muhabbat tuyg'ularidan tashqari iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, g'ayrat, hayo, pokizalik, shafqat, umuman, insonning qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pok fazilatlar tushunilgan.

Alisher Navoiy shuning uchun ham ishqni toifalarga bo'lganida bunday zotlarni "ishqi xos" ahli deya atagan edi. Bunday muhabbat odamdan favqulodda

ko'ngli poklik va nafs ehtiyojlaridan ozod bo'lishni talab qiladi. Mistik oshiqning yetakchi xususiyati – o'z-o'ziga murosasizligidir. Uningcha shumlik va gunohlarni bekitmoq ishqqa xiyonatdir. Bugina emas, u hamisha o'zini noqis va nokomil, gunohkor hisoblaydi. Hamma minnat va malomatlarni o'z zimmasiga oladi. “Malomat” – arabcha so'z bo'lib, qiynash, qiynamoq mazmunidagi “*lavm*” o'zagidan paydo bo'lgan kalimadir. Malomatiylik maslagi esa, asosan nafsni qiynash, boshqalarning o'ziga qaratilgan ta'nalarini to'g'ri qabul qilishdir.

*Xudoni ishq birla tanda joningni fido qilg'il,
Kechib bu jonu kullidin o'zungni mosivo qilg'il...*

*Darig'o, fisqu isyon birla zoe' o'tti umrim deb,
Huvaydo, yer yuzin ohang bila motamsaro qilg'il.*

Huvaydoning ushbu hikmatidagi so'zlar chinakam malomatiyga xos bir e'tirofdir. Nafsni nazorat aylash, nafsga qarshi kurash tuyg'usi shoir va shayxning deyarli har bir g'azalida sezilib turadi. Buning sababi shundaki, malomatiylar ulug'likdan, da'vodan, o'zini ko'z-ko'z qilishdan voz kechgan kishilardir. Ular botinan Haq bilan, zohiran xalq bilan birgadirlar. Malomatiylar qilgan ishlari, erishgan yutuqlariga emas, burchga va o'z burchlarining nihoyatda og'irligiga ahamiyat berganlar. Bunday zotlar insonning qusur va kamchiliklari, ojizlik va axloqiy noqisliklari haqida keng mushohada qilish va ularni hech xaspo'shlamasdan ochiq-oydin bayon aylashga chorlaganlar.

Bunday xususiyat badiiy adabiyot uchun g'oyat qulay va ta'sirchan usullardan biri bo'lganligi uchun ham so'fiy-shoirlarning malomatiylik nuqtai nazaridan bayon qilgan xulosalari estetik ta'sirchanlikni yanada kuchaytirgan. Xojamnazar Huvaydo ijodida ham Yassaviy boshlab bergan malomatiylik xususiyatlarini yangicha ko'rinishda namoyon bo'lishini kuzatamiz. Huvaydo ulug' ustoz Yassaviy hikmatlaridagi da'vatlarni lirik qahramon zimmasiga yuklash orqali tasavvufiy qarashlarni badiiy ifodalaydi. Uning ijodida shu tipdagi g'azal va ruboiylar, murabbalar ko'plab uchraydi. Quyidagi misolda buning yaqqol dalilini ilg'ash mumkin:

*Hayf umrim foniy dunyo deb ado qildim g'alat,
Bilmadim guharni qadrin, kam baho qildim g'alat.*

*Ko'p yemak, ko'p uxlamak, ko'p so'zlamaklikka mudom
Xo' qilib joni azizimg'a jafu qildim g'alat...*

*Xayru ehson, toat aylab, Haq rizosin topmadim,
Hosil aylab maqsadim, nafsım rizo qildim g'alat...*

*Yaxshi deb qo'yma Huvaydog'a, birodar e'timod,
El aro nafsım uchun suratnamo qildim g'alat.*

Bunday zotlarning oliy orzusi Haq vasliga erishmoq, iftixorlari esa Haqqa oshiqlikdan iboratdir. Ular “Ishq yo'lida jon berganni armoni yo'q” deb hisoblaydilar. Yassaviy bu haqda aytadiki:

*Jafu chekmay oshiq bo'lmas, tingla g'ofil,
Jafu chekib sobir bo'lg'on bo'lmas johil.*

Demak, jafu chekib oliq martabasiga ko'tarilish, birinchidan g'ofillikni haydaydi. Ikkinchidan, johillikka yo'l qo'ymaydi. G'aflatdan qochish – faol tasavvurlarga keng yo'l ochadi. Bu orqali ilohiy bo'lsa-da, mohiyat axtariladi. Mohiyat izlayotgan shaxs, tabiiyki, atrof-muhitda sodir etilayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaydi:

*Xudovando, meni solg'il o'z yo'lingga,
Nafs ilgida xarob, ado bo'ldum mano.
Fisqu fujur to'lib-toshib, haddin oshti,
G'arqob bo'lib isyon ichra qoldim mano.*

Yassaviy hikmatlari namunalarida oyat va hadislar ta'sirini turli ko'rinishlarda kuzatishimiz mumkin. Ba'zan adib biror masala yuzasidan fikr yuritayotganida hadislarning mazmun-mohiyatini singdiradi yoki hadislarga hamohang xulosalar chiqaradi. Ba'zan esa biror masala xususida so'z yuritayotganida to'g'ridan to'g'ri mavzuga aloqador hadislarni keltiradi.

“Faqrnoma” Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvufdagi tariqat sulukini bayon qiladi, u bo’lsa Payg’ambarning “Al-faqr – faxri” (“Faqirlik – faxrimdir”) degan hadisiga asoslangan. Mazkur hadisning kelib chiqish tarixi ham biz uchun g’oyat katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Payg’ambar qizlari Fotimai Zahroni hazrat Aliga berganlarida sepiga “ostilariga solgudek bir qo’chqor terisi, ustilariga yopingudek bir jun sholcha, yana bir dona yostiqlik, bu yostiqlikning tashqarisi (astari) meshdan tikilgan, ichi xurmo po’stloqlari bilan to’lg’azilgan edi.⁵ Qizlari Fotima bu qadar faqirlikdan noliganida Payg’ambar aytadilar: “Muso payg’ambar qizlari bilan 10 yilgacha o’rtalarida bir dona chopondan boshqa ostilariga solgudek to’shaklari yo’q edi”.

Shu sabab Yassaviy hazratlari “Faqrnoma”da Payg’ambarning yana ikki muborak hadislarini keltiradi: 1. “Xubbul fuqaroi min-al imon va bug’zu-l fuqaroi minal kufri” – “faqirni yaxshi ko’rmak imondandir, faqirni xor tutmoq kufrdir.” 2. “Hurmat-ul fuqaroi-l mo’minina a’zamu indallohi min sab’i-s-samovoti va sab’i-l arzina” – “faqirlik martabasi va hurmati yetti qat osmondan va yetti qat yerdan ulug’roqdir”. Aytilishicha, Me’roj kechasi Payg’ambar faqirlik suratini ko’rib, Oллоhdan shunday so’z eshitibdilar: “Ey Muhammad, agar meni tilasang faqir bo’l...”

Faqirlikda esa qanoat qilmoq darkor. Bu haqda hadisda shunday aytilgan: “Al qanoatu kanzun la yafna” – qanoat tunganmas xazinadir”..

Ahmad Yassaviy mazkur hadisni hikmatlarida so’fiyona tarzda quyidagicha sharhlaydi:

Ummat bo’lsang g’ariblarga tobe bo’lg’il,

Oyat, hadis har kim aytsa some bo’lg’il.

Rizqu ro’zi har kim bersa qone’ bo’lg’il,

Qone’ bo’lib shavq sharobin ichdim mano.

Hazrat Yassaviy hikmatning ikkinchi satrida asl manbaga to’g’ridan to’g’ri ishora qiladi. Qanoat tufayli Yassaviy “shavq sharobin” ichadi. Bu iborani oddiy

⁵ Alixonto’ra Sog’uniy. Tarixi Muhammadiy. Toshkent. 1991. 1-tom. 109-bet.

may emas, tasavvuf istilohoti sifatida tushunish muhim. Chunki fano so'fiyning hol-ahvoli bilan bog'liq bosqichlardan bo'lib, bu bosqichlar qarb (yaqinlik), muhabbat xavf, rijo, shavq, mushohada va nihoyat, yettinchisi fanodir.

Hakim at-Termiziydan naql qilinadiki: "Ozod ul kishidurkim, hech bandadin hech nima tama' qilmag'ay". Demak, Yassaviy asos solgan tasavvuf adabiyotining asl mohiyati ham ruh ozodligi, butun vujud bilan faqatgina Haqqa intilish, nafs yetaklovchi turli illat va nuqsonlardan forig' bo'lishdir. Ana shu mazmun – mohiyat Yassaviyning ham, uning izdoshlari bo'lgan so'fiy shoirlarning, jumladan, Xojamnazar Huvaydoning ham komillikka da'vat konsepsiyasini tashkil etadi.

*Tariqi ishq aro qo'ysang qadam, jondin guzar qilg'il,
Taalluqoti olamdin o'zungni bexabar qilg'il.*

*...Bu dunyo dom erur, domig'a sepmish donai hirsin,
Giriftori ani bo'lmasdin ilgari hazar qilg'il.*

*...Bilursan yo'q bu dunyoni baqosi ham tiriklikni,
Ayo miskin Huvaydo, kelg'il emdi tarki sharr qilg'il.*

Ko'rinadiki, Xojamnazar Huvaydo piri komil Ahmad Yassaviyning oshiqlik, faqirlik, xokisorlik haqidagi qarashlarini o'z davri va muhiti doirasida kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Huvaydoda Haq oshig'i bo'lgan lirik qahramon o'z oldiga muayyan maqsad hamda vazifalarni qo'yadi. "Bu dunyoning baqosiz"ligini ta'kidlash bilan birga, foniy dunyoni tuzoqqa o'xshatadi, bu tuzoqqa esa hirs va ta'ma donalari sepilgan. Tabiiyki, nafsiga hokim bo'lolmagan kimsa ana shu dom - tuzoqqa albatta muhtalo bo'ladi. Demak, Xojamnazar Huvaydoning lirik qahramoni bo'lgan oshiq – solik oshiqdir. U Haq yo'liga otlanar ekan, dunyodan etak silkib, eng olijanob fazilatlar sohibi bo'lishga, komillikka intiladi, o'z-o'ziga malomat qilish orqali boshqalarni ham hidoyat yo'liga da'vat etadi. Bu esa shoir va shayxning Yassaviy an'analarini yangi bosqichga ko'targanligi, davr va muhit nuqtai nazaridan yangilaganidan dalolatdir.

2-fasl. Huvaydo she'riyatining mavzular ko'lami va janr xususiyatlari

Xojamnazar Huvaydo o'zining diniy va dunyoviy qarashlarini, tasavvuf ta'limotiga oid fikr-mushohadalarini bayon etishda mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy lirik janrlarning ko'pchiligiga murojaat qilgan. Albatta, shoir bu borada o'zigacha mavjud bo'lgan an'analar doirasidan uzoqlashmagan. Ammo har bir lirik janrning imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilgan, ularda olg'a surilayotgan falsafiy-g'oyaviy masalalar doirasini kengaytirishga, asarlari tili va uslubini zamonasi va muhitiga moslashtirishga intilgan. Shuning uchun ham biz shoir va shayx asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, u yashagan davr kishilarining madaniy-ma'naviy saviyasi, dunyoqarashi, e'tiqodi hamda mushohadalari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lamiz. Quyida biz shoir murojaat qilgan asosiy lirik janrlar va ularning Huvaydo badiiy-estetik, g'oyaviy-falsafiy pozitsiyasini bayon ettirishdagi o'rnini aniqlashtirishga harakat qilamiz.

G'azal janri ko'p asrlik taraqqiyot tarixiga ega. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, ushbu lirik janr dastlab arab adabiyotida yuzaga kelib, uning lug'aviy ma'nosi "ayolni sevmok" degan ma'noni anglatadi. Lug'aviy ma'nosidan ham ko'rinib turibdiki, g'azal dastlab muhabbat mavzusini tarannum etuvchi janr sifatida maydonga kelgan. Ammo keyinchalik uning ixcham va qulay shakli, his-tug'ularni ifodalash imkoniyatlari, fikr-mulohaza vag'oyalarni o'quvchi ongi va shuuriga tez yetkaza olish xususiyati uning mavzular ko'lami kengayib borishiga olib kelgan. Keyinchalik bu janrda axloqiy-didaktik qarashlar ham, voqea-hodisalarning lirik tafsilotlari ham, ishq bilan bog'liq tuyg'ular ham, orifona da'vatlar ham kuylana boshlagan.

Muayyan davrlar ichida g'azal uzil-kesil bo'lmasa-da, hajm jihatdan o'z qiyofasiga ega bo'la bordi. Mumtoz adabiyotshunoslikda 19 baytgacha bo'lsa g'azal, undan ortib ketsa qasida deb atalishi lozimligi haqida xulosalar paydo bo'ldi. Ammo lirika epik bayonni o'ziga sig'dira olmaydi. Hajm qancha katta bo'lsa, she'r harorati shuncha susayib boradi.

Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat” asaridan o’rin olgan g’azallar ham asosan 9-10 baytni qamrab olgan. Bu g’azallar g’oyaviy-falsafiy jihatdan so’fiyona qarashlarni ifodalaydi. Bizgacha yetib kelgan g’azallarida xalifalar – “chahoryorlar” - Abo Bakr Siddiq, hazrati Umar, hazrati Usmon, hazrat Alilar ulug’langan namunalar bo’lib, ular keyingi davrlarda g’azalchilikda “hamd” va “na’t” tipidagi namunalarni eslatadi. Yassaviy hazratlarining quyidagi g’azali shakl va mazmun jihatdan, g’oyaviylik va badiiylik tomonlaridan ham mazkur janrning barcha talablariga javob beradi va keyingi davrlar g’azalnavislari uchun ham mahorat timsoli bo’lib qolgan:

*O’n sakkiz ming olamda hayron bo’lgan oshiqlar,
Topmay ma’shuq charog’in sarson bo’lgan oshiqlar.*

*Har dam boshi o’rgulib, ko’zi xalqqa termulib,
Hu-hu teyu jo’rkulib, giryon bo’lgan oshiqlar.*

*Kuyib-yonib kul bo’lgan, ishqida bulbul bo’lgan,
Kimni ko’rsa qul bo’lgan, mardon bo’lgan oshiqlar.*

*Yo’l ustida xok bo’lgan, siynalari chok bo’lgan,
Zikrin aytib pok bo’lgan, nolon bo’lgan oshiqlar.*

*Himmat qo’rin bog’lagan, yurak-bag’rin dog’lagan,
Faryod urib yig’lagan, giryon bo’lgan oshiqlar.*

*Gohi yuzi sorg’orib, gohi yo’lida g’arib,
Tasbihlari yo habib, javlon bo’lgan oshiqlar.*

*Ahmad, sen ham oshiq bo’l, sidqing birla sodiq bo’l,
Dargohiga loyiq bo’l, jonon bo’lgan oshiqlar.*

Yassaviy maktabi davomchilari bo'lgan Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Huvaydo va boshqa so'z san'atkorlari ham g'azalchilikni yangi bosqichga ko'tardilar va janr talablariga to'la javob beradigan holga keltirdilar. Masalan, Xojamnazar Huvaydo Ahmad Yassaviy g'azalnavisligidagi bir qancha xususiyatlarni rivojlantiradi. Yor madhi va oshiq holati haqidagi tushunchalar majoziy tus ola boradi. Shoir g'azallaridan birida quyidagi misralar borki, biz ularda nafaqat Yassaviy izdoshlari uslubini, balki Lutfiy, Navoiylarning majoziy ishq va ishq haqiqiy tarannumidagi bayonlariga ergashishni ham kuzatamiz:

*...Dardi so'zi dil keraktur ishq aro, ey muddai,
Bo'lmasa darding sani, dunyo sariga kor qil.*

*Zarrai ishq muhabbat mulki olamdin ziyod,
Maxzani ko'nglung ichida dardi ishq bisyor qil...*

*Ey Huvaydo, ishq o'tidur turfa qattig', parda so'z,
Pardalarni kuydurub, hardam nigohi yor qil.*

XI asrdan e'tiboran **ruboiy** ham zabardast so'z ustalari tomonidan e'tirof etilib, rasmiy devonlardan mustaqil janr sifatida o'rin ola boshladi. Bunda ham, xususan, tasavvuf adabiyotida Yassaviy boshlab bergan to'rtliklar asos bo'lib xizmat qildi.

Ruboiyda falsafiylikning chuqurlashuvini tasavvuf bilan bog'laydilar. Bu bejiz emas. Tasavvuf she'riyatida ishq falsafiy mohiyat kasb etadi. Chunki bu ta'limotga ko'ra, olam ham, Odam ham ishq tufayli yaralgan, olam ishq tufayli barqaror, bir kun kelib yo'qlikka yuz tutsa, bu ham ishq tufaylidir, degan xulosaga keladi so'fiylar. Ularning aqidasi, olamning uyg'unligi, koinotning muntazamligi ham ishq tufayli. Biz bu haqda ishimizning galdagi fasllarida alohida to'xtalamiz.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini asos qilib oldi hamda o'z taraqqiyoti davomida uni oliy mukammallikka yetkazish yo'llari, bosqichlari va qoidalarining butun boshli bir majmuini ishlab chiqdiki,

unga amal qilgan sari kishi o'zidagi qusurlardan qutula boradi. Yangi-yangi fazilatlar kasb etadi. So'fiy shoirlarning ruboiylari esa ayni shu komillik dasturining she'riy ifodasi deyish mumkin. Bunday tipdagi ruboiylarda komil inson martabasiga yetishish yo'llari, shartlari, maqom va darajalari ko'rsatilgan. Komil insonning hayot tarzi, maqsad va intilishlari xususida mulohazalar o'z aksini topgan. Bir butun holda bu ruboiylar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra ham Haq, ham xalq rizosiga erishgan komil inson haqidagi nazmiy asarlardir. Ollohga itoat va ibodat, ota-onaga hurmat, yorga sadoqat, Vatanga muhabbat, fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglash, diniy va dunyoviy ilmlarni egallash singari bir qator insonparvarlik g'oyalari targ'ib etilgan, ezgu fazilatlar ulug'langan, yovuzlik va badbinlik, xudbinlik qoralangan bu ruboiylarni muayyan tizimga solinsa, fikrimizcha, komil inson va barkamollikning o'ziga xos axloqiy yo'riqnomasi yuzaga keladi.

Tasavvufga oid ruboiylarda Olloh hamdi, payg'ambar na'ti, islomiy ahkomlar targ'ibi hamda so'fiyona g'oyalar tashviqi yetakchi o'rin tutadi. Lekin shayx-shoirlar faqat islomiy va tasavvufiy mavzulardagina qalam tebratmasdan, inson ruhining rang-barang qirralariga ham e'tiborni qaratganlar, hayot haqidagi nafis qarashlarga ham keng o'rin berganlar. Pand-nasihati tipidagi ruboiylarda ham badiiylarni nazardan qochirmaganlar.

Ma'lumki, pand-nasihati qancha ixcham va yorqin ifodalansa, shuncha ta'sirchan va jozibador bo'ladi. Ayni jihatdan, ruboiy falsafiy mazmunni ifodalashga juda qo'l keladi. Bu ixcham va lo'nda shakl shoirlarga katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli-tuman o'gitlarni unga mahorat bilan singdirish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, Sharqda mashhur bo'lgan, xojagon-naqshbandiya silsilasining asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoniyni quyidagi ruboiysi ham shaklan sodda va tushunarli bo'lsa-da, mazmunan bir necha ma'no qatlamlariga ega:

Gar bir kishidan dilda shikoyat bo'lgay,

Dil og'rig'i undan benihoyat bo'lgay.

Hech o'ylama intiqom olishni, chunki

Yomonga yomonligi kifoyat bo'lgay.

Bu ruboiy ham pand-nasihati, ham falsafiy, ham diniy, ham tasavvufiy, xullas bir necha ma'no talqinlariga ega.

Ko'rinib turibdiki, birgina ruboiy bir necha ma'no talqinlariga asos berayapti. Bu uning badiiy yuksakligi, mazmunining chuqur va serqirraligidan. Ayni jihatdan u dongi ketgan tariqat shayxining emas, balki mahoratli so'z san'atkorining ijodidan namunaday taassurot qoldiradi.

Xojamnazar Huvaydo salaflar an'alarini davom ettirar ekan, ruboiy zamiriga ham so'fiyona qarashlar, ham dunyoviy xususiyatlarni jo etadi. O'tkinchi umrdan unumli foydalanmaslik oxirat ishlarida ham mushkulliklarni keltirib chiqarishini badiiy ifodalaydi:

Afsus, yuz afsuski, umrum abas o'tti,

Nodonlig' ila darpayi hoyu havas o'tti.

Na kor qilib, naqdi hayotimni tugatti,

Bilman, na ani bir kecha yo bir nafas o'tti.

Nafsni qoralash – tasavvuf adabiyotining markaziy masalalaridan biri. Chunki bandaning o'z Parvardigoriga yetishishi yo'lidagi asosiy to'siq bu –nafs. Nafsni yengan inson ruhoniy, unga qul bo'lgan kishi – hayvoniy xususiyat kasb etadi. Dunyodagi barcha yomonliklar nafsning turli vasvasalari mahsuli. Shuning uchun ham so'fiyona adabiyotda nafsni kofirga, dushmanga, azozilga, itga, ajdahoga va boshqalarga o'xshatadilar. Masalan, Najmiddin Kubroning quyidagi ruboiysida nafs kofirga o'xshatilgan:

Pinhon emas aslo – ichda bir dev bordir,

Boshini ko'tarmog'i uning dushvordir.

Iymonini ming martaba talqin qildim,

Ul asli muslim emas, kuffordir.

Umr bandasiga berildimi, uni qanday o'tkazish bandaning o'z qo'lida. Quruq orzu bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Umrda muttasil mehnat, xayrli amallar mazmun bag'ishlaydi. Shu jihatdan olganda Abusaid Abulxayrning shunday yashaki, bu dunyodan o'tib ketganingdan keyin serqirra va sermahsul

hayot yo'lingni ko'rib, odamlar hayratda qolsin mazmunidagi mana bu ruboiysi diqqatga sazovor:

Bul umr bahor abri – do'liga qolsin,

Bul diydami, tog'larni seliga qolsin.

Shunday yashakim, ko'z yumsang, hayrat qo'lini

Tishlamak ishi bashar eliga qolsin!

So'fiy shoirlar ishq mavzusini ham hassoslik bilan qalamga olishgan. Ular nazarida bu olamning avvali ham, oxiri ham ishq. Ko'plab tasavvuf shoirlari ishqni umr shioriga, amal dasturiga aylantirganlari bejiz emas.

Tasavvuf she'riyatida oshiqlik va komillik tushunchalari yonma-yon keladi. Mutasavvif shoirlar ijodida insoniy komillik g'oyalarining ishq oshiqlik bilan hamohang ifodalanishining sababi shuki, bunda yigit va qizning muhabbati emas, balki bandaning o'z Parvardigoriga, insonning Yaratuvchiga ishq ko'zda tutiladi. Ollah sevgisiga erishish uchun oliy darajadagi kamolotga erishish talab qilinadi. Buning uchun inson muttasil o'zini tarbiyalab, ko'nglini poklab, dunyoviy va ilohiy ilmlarni egallab borishi kerak. Busiz maqsadga erishish mumkin emas. Majdiddin Bag'dodiy Ollah buyurgan barcha amallarni ado etmagan oshiqning ishqda tayinli rutbasi, martabasi bo'lmaydi deb hisoblaydi:

Ishq yo'lida kim boshni fido jeb bilmas,

Mot etmasa ushshoqni – o'sha komilmas.

Ko'yingda aniq rutbasi bo'lmas kishining

To boshdin – oyoq amallaringni qilmas.

Alisher Navoiy shoirlarni ikki toifaga ajratgan: Haq ishqini to'g'ridan to'g'ri kuylovchilar, Haqni majoz va ramzlar vositasida kuylovchilar. Ahmad Yassaviy, Hakim ota, Sulaymon Boqirg'oniy, Xojamnazar Huvaydo singari so'fiy-shoirlar she'rlarida to'g'ridan to'g'ri Ollohga murojaat qiladilar, diniy-ilohiy qarashlarini ramz va ishoralarsiz ifodalaydilar. Ikkinchi toifa shoirlari esa (Navoiy o'zini ikkinchi toifaga kiritgan) turli badiiy vositalar, ramzlar hamda majoz vositasida Haqni tarannum etadilar. Yor – Olloh, oshiq – banda timsoli va hokazo. Bu borada

istiloh va lug'atlar ham vujudga kelganki, ularni mukammal bilmay turib, yetuk badiiy asar yaratib bo'lmaydi.

Shayx-shoirlarning ishqiy ruboiylari, asosan, ilohiy mahjubaga bag'ishlangan. Lekin ba'zida ular majoziy va ilohiy ishqni mahorat bilan o'zaro uyg'unlashtiradilar. Bu ruboiylar o'z badiiy quvvatiga ko'ra ishq muhabbat kuychilari bo'lgan otashnafas shoirlarning she'rlaridan qolishmaydi. Masalan, shayx Huvaydoning quyidagi ruboiysiga e'tibor beraylik:

Ishqida qil ul javhari joningga vido',

Ey dil, ayt ruhi ravoningga vido'.

Ey Xoja, deding gulshan ko'yin tark et,

San ayla bu royi mulki jahoningga vido'.

Mutasavvif shoirlar, tariqat pirlari faqatgina da'vat va ijod bilangina shug'ullanmay, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham faol ishtirok etganlar. G'aznada Abusaid Abulxayr, Xurosonda Ansoriy, Xorazmda Kubro, temuriylar saltanatida Xoja Ahror singari valiylar Haq irodasi va xalq manfaati yo'lida kerak bo'lsa jonlarini tikkanlar. Tasavvuf adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Xojamnazar Huvaydo ham, garchi rasman biror dunyoviy lavozimni egallamagan bo'lsa-da, el-yurtga ma'naviy rahnamolik qilgan, murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda odamlarni to'g'ri yo'lga yetaklashda, ruhan dalda berishda peshvolik qilgan.

Bugungi kunda ayon bo'lishicha, tariqat pirlari – tasavvuf shoirlari, bizga bir necha o'n yillar davomida bir yoqlama talqin qilib kelganlari kabi, zulm-zo'rlikka bosh egishga, taqdir hukmiga bo'ysunishga da'vat etmaganlar, balki ular avvalo insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun qayg'urganlar, jamiyatning pokligi uchun kurashganlar. Shuning uchun ham tariqat shayxlari hayoti va faoliyati hamisha ibrat namunasi bo'lib kelgan, ijodi esa yuksak ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan.

Shayx va shoir Huvaydo ijodida ruboiy janrining o'rni va ahamiyati, mavzular ko'lami, g'oyalar silsilasi hamda badiiy qimmatini tahlil etishimizda mazkur janrning yuqorida ko'rib o'tilgan takomil jarayonini yaqindan bilish talab

etiladi. Shundagina biz shoirning adabiy merosi, xususan, uning lirikasida yetakchi o'rin tutuvchi ruboiylarini tekshirishda xolislikka, odilona baho bera olishga muvaffaq bo'lishimiz mumkin.

II BOB. TASAVVUF ADABIYOTINING AN'ANAVIY XUSUSIYATLARI

1-fasl. **Ishq va oshiqning badiiy-falsafiy talqinlari.**

Ma'lumki, Yassaviy davri va undan keyingi zamonlarda ham ishq mavzusi badiiy adabiyotda eng ko'p murojaat qilingan mavzulardan edi. Ammo Alisher Navoiy e'tirof etganidek:

Ishqkim, har bir ishinda yozdi yuz ming turfa xalq,

Turfaroq budurki, yuz mingidin biri yozilmadi.

“G'aroyib-us sig'ar” devoni. 632-g'azaldan.

Darhaqiqat, odamlar o'rtasidagi kundalik munosabatlardan tortib, eng muqaddas e'tiqodgacha, jamiyatdagi voqealardan boshlab, turmushning eng murakkab hodisalarigacha ishq mavzusi bilan bog'liq holda tarannum etiladiki, bu Yassaviy maktabi namoyandalari ijodida ham mazkur mavzuning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ahmad Yassaviyda “Har ne qilsang oshiq qilgil, parvardigor”, degan fikr bor. Oshiqlik ulug' tasavvuf piri uchun bosh orzu edi. Hikmatlarida ham u shoir sifatida emas, ko'proq Haq oshig'i sifatida namoyon bo'lishi ham bejiz emas.

Yassaviyning tarixiy xizmatlaridan biri shundaki, u turkiy tasavvuf adabiyotida birinchi bo'lib ishqning ma'no-mohiyati, siri va inson qismatidagi olamshumul ahamiyatini har tomonlama chuqur talqin qilib berdi. Bu – hali ishqni tan olmaydigan va ishqqa qarshi turgan kishilar mavjud zamonlar uchun o'ziga xos jasorat edi. Ayniqsa, hazrat Yassaviy xalq o'rtasida mashhur bo'lgan “Dardsiz – kesak, ishqsiz – eshak” naqlini mahorat bilan hikmatlariga singdirishi buni yaqqol dalillaydi:

Dardsiz odam odam emas, muni anglang,

Ishqsiz odam hayvon jinsi, muni tinglang.

Huvaydo esa bu fikrni badiiy-estetik jihatdan yanada yuksakka ko'taradi. Namrud voqeasini (Bu odam Ibrohim alayhissalomni manjaniqqa solib, dahshatli

olovga uloqtiradi. Ammo Tangri taoloning mehribonligi tufayli olov gulshanga aylanadi) talmeh san'ati sifatida qo'llab, obrazli manzarani ko'z oldimizda gavdalantirshga erishadi:

***Ey Huvaydo, ishq eli do'zax o'tidindur omon,
Chunki Namrud o'tini bog'i guliston qildi ishq.***

Biz tasavvuf adabiyotidagi diniy-dunyoviy, insoniy va ilohiy xususiyatlar haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo ishqning g'oyaviy-falsafiy mohiyati haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lishimiz talab etiladi.

Tasavvuf talqinlariga ko'ra ishq va oshiqlik Haqqa intilishning, ma'rifatga shaydolikning oliy ko'rinishidir. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo'lishi mumkin, ammo ishq va oshiqlikda bunday illat bo'lmaydi. Oltinni olov sinaganidek, bandani ham ilohiy ishq toblaydi, kamolot pillapoyalariga ko'taradi. Faqat ishq kishini abadiyatga, asl maqsadga eltadi.

Hamma narsaning intihosi bor, zero cheksizlik va bardavomlik Tangri taologagina xos. Ishq ham ana shu abadiyatning belgisidir. Xojamnazar Huvaydo she'rlarida shuning uchun ham ishq bilan bog'liq kechinma va tushunchalar ba'zan to'g'ridan to'g'ri Xudo bilan bog'lanib ketishining sababi ham shunda:

***Ey Huvaydo, dunyoda g'ayr az Xudodin o'zga hech,
Bu hayoti odami, bilsang bari xobu xayol.***

Bu falsafiy xulosani nafaqat o'zbek yoki Sharq, balki jahon adabiyoti namunalarida ham tez-tez uchratib turamiz.

***Ko'ngli ishq bilan to'lsa odamzot umri boqiydur,
Kimki oshiq bo'lsa umri hamisha bardavomdir,***

deb yozgan edi "lison-ul g'ayb" unvoni bilan mashhur bo'lgan Xoja Hofiz. Bunga hamohang ravishda Jaloliddin Rumiy "Olamni ishq tutib turadi" degan xulosaga keladi. Ma'rifat va Haqiqat tasavvufda ana shunday anglashilgan.

Ishq-muhabbat tasavvufning asosiy ruknlaridan biri, g'oyaviy asosidir. Deyarli barcha irfoniy tushunchalar sharhi ishq-muhabbatga kelib taqaladi. Tasavvuf ta'limotining deyarli barcha namoyandalari tasavvuf ilohiy ilm haqidagi ilmdir, deya hukm chiqarganlar. Chunki tasavvuf ilohiy ma'rifatni egallash,

Allohning sifat va ismlari orqali Uning zotini bilish va tanishni talab qilar ekan, buni aql va nazariy-tafakkuriy bilimlar bilan emas, balki botiniy tuyg'u, ya'ni muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin deb ta'lim beradi. Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida "Ishq ustodi oldida aql – tifli maktabdur", ya'ni ishq shunday bilimdon murabbiyki, aql uning oldida maktab bolasiga aylanib qoladi deya lutf qiladi. Ulug' ustod an'analarini davom ettirar ekan, ishq ko'yida aql va ko'ngil munosabatlarini Huvaydo yangi lirik sharh bilan boyitadi:

Aql maktubin yuvib har dam ko'ngulni lavhidin,

Bedavotu beqalam yuz daftar insho qildi ishq.

Shunday qilib, chinakam solik – bu oshiq solikdir, ishq ilohiy ma'rifatni kashf etuvchi qudrat, solik vujudini yondirib, mahbub visoliga yaqinlashtiradigan poklovchi muqaddas olovdur. Ahmad Yassaviyning qat'iy xulosadek taassurot qoldiradigan quyidagi misralarida ana shu haqiqat aks etgan:

Ishqqa qadam qo'yg'onlar Haq diydorin ko'rarlar,

Muso sifat mahsharda Haqdin savol so'rarlar.

Huvaydo nazarida esa ishq o'ti shu qadar kuchli bo'ladiki, u yor (Haq) bilan solik banda o'rtasidagi har qanday pardani kuydirib, yor jamoliga nazar solishga imkon beradi:

Ey Huvaydo, ishq o'tidur turfa qattiq, parda so'z,

Pardalarni kuydurib, har dam nigohi yor qil.

Bundan tashqari, insonda ilohiylik bilan moddiylik birgalikda yashaydi. Shunday bo'lgach, inson ruhi o'z asli - Mutlaq ruhga qarab tinimsiz ravishda harakatda bo'ladi, moddiy vujud bilan kurash olib boradi. Insonning Ilohga bo'lgan sig'inishi, muhabbatining boisi shu. Shu sababga ko'ra, muhabbat o'zlikdan voz kechib, dunyoviy orzu niyatlarni yo'qotish – mahv etishni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyo muhabbatidan ko'ngil uzmasdan Iloh muhabbatini qozonish mumkin emas. Dunyo muhabbatidan yuz o'girib, ilohiy ma'rifatni egallagan odam, nafsoniy sifatlardan yuz o'girib, ilohiy sifatlarni o'zlashtiradi.

So'fiy shoirlar ijodiyotida ishq madhi mo''tabar martabada turadi. Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul ta'biri bilan aytganda, tasavvuf adabiyotining "olamshumul mafkurasi ishqdir".⁶ Yassaviyning quyidagi misralarini mutolaa qilganda bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin, chunki u ishqni imon belgisi, imon garovi yanglig' ulug'laydi:

*Ishq bozori ulug' bozor, savdo harom,
Oshiq'larga sendin o'zga g'avg'o harom.
Ishq yo'liga kirganlarga dunyo harom,
Har ne qilsang oshiq qilg'il, Parvardigor.*

Oshiqlik martabasi haqidagi Yassaviyning ana shunday dasturiy qarashlarini o'zlashtirganimizdan keyin so'fiy shoirlar, jumladan, Xojamnazar Huvaydoning:

*Ayo dilbar, jahon xalqi aro afsonadur Majnun,
Senga mendek zamona xalqidin Majnun gado bo'lmas -*

baytidagi yashirin orifona ma'nolar birdaniga ravshanlashadi. Majnun -Haq oshig'i. U butun borlig'i bilan oriflik sari intiladi. Ishqi ilohiyini oliy maqsad deb biladi. Haq jamoli oldida qolgan barcha dunyoviy va nafsoniy narsalar o'z qimmatini yo'qotadi:

*Bo'lmasa ishq ikki jahon bo'lmasin,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasin,*

degan xulosaga kelgan edi ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy ham.

Misollardan ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ishq o'z mazmunini o'zgartirgan, tasavvufiy obraz darajasiga ko'tarilib, Haq zuhuri va jamolini anglata boshlagan. So'fiy shoirlar ijodida "may", "ishq", "yor" singari atamalar ham ana shunday tasavvufiy ramzlarga aylangan o'rinlar ko'plab uchraydi. Shuning uchun ham yorga muhabbat, uning vasliga intilish, cheksiz sadoqat, fidoyilik tarannumi orqali lirik qahramon faqat xudoni – yorni tan oladi, boshqa narsa-hodisalar o'z qimmatini yo'qotadi. Yassaviy lirik qahramonining Haqqa murojaatida ana shu holatni kuzatish mumkin:

Jilva qilg'il, telba qilg'il, shaydo qilg'il,

⁶ Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent. 1991. B. 180.

***Majnun qilg'il, elu xalqqa rasvo qilg'il,
Sham ko'rsatib parvonadek axgar qilg'il,
Har ne qilsang oshiq qilg'il, Parvardigor!***

Bunday haroratli misralar zamiriga yashiringan tasavvufiy ma'nolar yana Robia Adaviyaning Allohga munojotini yodga soladi: “ Yo Rabbim, men jannat umidida senga ibodat qilsam, jannatni menga harom qil, agar do'zax azobidan qo'rqib toatga berilsam, meni jahannam o'tida kuydir. Agar sening visoling umidida ranj chekib, taqvo qilsam meni jamolingdan benasib etma!” Aynan mana shu mazmuni Yassaviy hikmatlarida ham uchratamiz:

***Haqqa oshiq bo'lg'on qullar doim bedor,
Rizvon emas maqsadlari erur diydor,
Ahlu ayol xonumondin bo'lur bezor,
Ismoildek aziz jonin qurbon qilur.***

So'fiy shoirlarning ilohiy ishq bilan munosabatini to'g'ri anglash va talqin eta olish ularning adabiy merosidagi ko'plab obrazlar mohiyatini tushunishga, ramzlar mohiyatini ocha bilishga olib keladi. Nafaqat o'zbek, balki butun Sharq adabiyotida eng ko'p murojaat qilinadigan adabiy qahramonlardan biri Majnundur. Shoirlarga o'z lirik qahramonining kayfiyati va ruhiy holati, qismati va psixologik qirralarini yoritishda Majnun obrazi ba'zan o'xshatish, ko'pincha esa talmeh vositasida yordamga keladi. Majnun sarguzashtlari, ishq yo'lida chekkan uqubatlari aslida afsonaviy tarzda tasvirlansa-da, Huvaydo lirik qahramoni ba'zan o'xshatishni g'uluvv (grotesk) darajasiga ko'taradi. Ammo shoir o'z mubolag'asida, qay darajada bo'lmasin, muayyan hayotiy zaminga, badiiy haqiqatga tayangani uchun uning o'ta mubolag'asi ham bizni ishontiradi:

***Donishu fahmu xiradni dil uyidin ko'tarib,
Telba aylab el aro, Majnuni rasvo qildi ishq.***

Talmeh san'atini qo'llashda shoir mazkur san'at materiali bo'lgan shaxs yoki u bilan bog'liq ma'lum va mashhur hodisaga urg'u berib, uni takrorlayvermaydi. Balki ana shu hodisa lirik ifoda tarkibiga singdiriladi.

Masalan, quyidagi baytni o'qiganimizda ko'z o'ngimizda sahro vahshiyatlari va kiyiklar orasida sargardon yurgan Majnun gavdalanadi:

***Kezib sahroga yursam Layli deb monandai Majnun,
Ko'rib holim hama jonlar, qilib vo hasrato yig'lar.***

Gap shundaki, ishq – ko'ngil ishi, qalb da'vatidir. Uni xirad - aqlu donish bilan yo'lga solish imkoni yo'q. Majnunning qalbi ishq izmida, uning holati, ruhiyatini aqlu idrok bilan his qilib bo'lmaydi. Huvaydoning boshqa bir g'azalida ana shu holat mantiqan asoslanadi:

***Ishqni mansubasin Majnuni hayrondin tila,
Laylidek xoli siyah zulfi parishondin tila.***

Yana bir xarakterli misol keltiramiz:

***Hech oshiq bemashaqqat topqon ermas ganji ishq,
Ganj emas ul ganjnikim, ostida gar mor o'lmasa.***

Mashhur rivoyatga ko'ra ganj-xazina bor joyda albatta ilon ham bo'ladi. Shoir bu o'rinda oshiqning shq yo'lida mashaqqat chekishi, turli balolarga giriftor bo'lishini xazina istagan kishining uni poylab yotuvchi ilon zahridan qo'rqmasligiga qiyoslamoqda. Natijada mantiqiy-falsafiy asos bizga oshiq holatining tabiiy ko'rinishini namoyon qilmoqda.

Yoki quyidagi baytlardagi mazmun-ma'nolarni to'g'ri qabul qilish uchun tasavvufiy ishq matlabidan yaxshi xabardor bo'lish talab qilinadi:

***Jahon mulkin aylar g'arqi to'fon,
Saharlar chashmi xunafshoni oshiq.***

***Hadisu tavbau taqvoni tashlab,
Ichib boda, dema bahsi aloyiq.***

***Dema nodonga rozingni, Huvaydo
Ki, bilmasdur bu sirni g'ayri Xoliq.***

Yassaviy an'analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan Huvaydo adabiy merosida Haq zuhuri, ilohiy ishq, oshiqlik matlabini dasturiy xarakterda aks ettiruvchi g'azallar ko'p uchraydi. Gap shundaki, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida shoirlarni ikki toifaga ajratganlar: ilohiy ishqni to'g'ridan to'g'ri kuylovchilar, ilohiy ishqni majoz va obrazlar vositasida kuylovchilar. Alisher Navoiy bu toifalarni tavsiflar ekan, Yassaviy izdoshlarini, Nasimiy, Hakim ota singari shoirlarni Alloh vasfini to'g'ridan to'g'ri kuylovchilar sirasiga kiritadi. Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy va boshqa shoirlarni esa majoziy she'riyat namoyandalari sifatida talqin etadi.⁷ Turk olimi Mustafo Eson esa she'riyat so'fiylar uchun san'at unsuri emas, balki ko'nglidagi fikrlarni, g'oyalarni ro'paradagi kishiga ta'sirchan qilib yetkazish vositasi deb hisoblaydi.

Xojamnazar Huvaydo adabiy merosining o'ziga xosligi shundaki, uning she'rlarida majoziy yor ham kuylanadi, Yassaviy maktabi an'analariga ko'ra xudoga to'g'ridan to'g'ri munajatlar ham uchraydi. Ushbu misralarda esa shoirning ilohiy-tasavvufiy g'oyalari, falsafiy qarashlari, aytish mumkinki, ham hayotiy, ham obrazli bayon etilgan:

Oshiq ermas ul kishikim, chashmi xunbor o'lmasa,

Ko'ksida dog'i muhabbat lola ruxsor o'lmasa.

Ilohiy muhabbat zamirida, avvalo pok insoniy muhabbat yotadi. Chunki Ilohiy ishq kuylangan asarlarda ham aslida insoniy kechinmalar, his-tuyg'ular jo'sh urib turadi. Shuning uchun ham Xojamnazar Huvaydo g'azallaridan birida alohida ta'kidlab aytadiki:

Ishq o'tdur jon uyida, aql erur misli tutun,

Tushsa o't xoshok aro, dud o'zini aylar yiroq.

Ushbu o'tga kuygali bordur kerak erning eri,

Kori har nomard emasdur ko'ksiga urmoq pichoq.

⁷ Alisher Navoiy. Asarlar. 14-tom. Toshkent. 1967. 98-bet.

Alisher Navoiyning “Nasoyim – ul muhabbat” asarida Shayx Ro’zbehon Baqliy haqida hikoyat keltirilgan. Unda aytilishicha, shayx Makkada istiqomat qilardi. Nogoh bir mug’anniya (xonanda ayol) muhabbatiga muftalo bo’ldi. Ammo uning holidan atrofdaogilar ogoh emas edilar, u yashirin ravishda oh-nola chekardi. Bundan xabardor bo’lgan ba’zi kishilar esa shayx ishqini ilohiy ishq bilan bog’lab, u Haq yo’lida nola-yu fig’on qilmoqda deb o’ylashardi. Shayx Ro’zbehon oxiri Makka mashoyixlari oldiga borib, xirqasini yechib tashladi va aytdiki, men bundan buyon yolg’onchi bo’la olmayman. Shundan keyin mug’anniya oldiga bordi. Xonanda ayol ham shayxning ishq-muhabbatini sezib, xonandalikni tark etib, shayx xizmatida bo’ladi. Navoiy yozadi: “ Va shayxning ul tug’yoni muhabbati taskin topdi va mashoyix majlisiga borib, xirqasini olib yana egniga soldi”.⁸

Hikoyatdan anglashiladigan eng muhim nuqta shuki, unda majoziy (insoniy) ishq bilan ilohiy ishqning bir-biriga bog’liqligi, biri birini to’ldirishi ko’rsatilgan.

Navoiy hikoyatni naql qilar ekan, shuni ta’kidlaydiki, shayx Ro’zbehonning “vajdu sayhalari” (nola qilishlari) “Tengri ishqida erdi”, mug’anniyani ko’rgandan keyin esa bu ishq kuchaydi, muayyan bir haqiqatga aylandi, ya’ni konkretlik kasb etdi. Mug’anniya vasliga muyassar bo’lgach esa, ko’ngli taskin topib, yana iloh ishq bilan shug’ullana boshladi. Demak majoziy ishq ilohiy ishqni kuchaytiruvchi, tezlashtiruvchi vosita. Ro’zbehonning mug’anniyaga ishq “Lison-ut tayr”dagi Shayx San’on ishqiga o’xshash. Piri murshid, to’rt yuz nafar shogirdning ustoz bo’lgan shayx ilohiy hikmatlardan xabardor, orif zot. Ammo u tarso qizni ko’rgach shaydoyu muftalo bo’lib qoladi, ne-ne malomatlarni bo’yniga olib, eng past yumushlarni bajarishdan or qilmaydi. Oxiri tarso qiz shayxning muhabbati sof va samimiy ekanligini bilgach, uning oldida tavba qiladi, islomga kirib, shayx muridiga aylanadi. Shayx San’onning ilohiy muhabbati sinovlardan o’tib, o’zi g’urur g’uboridan poklanadi, komillik darajasi ortadi.

Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida ishqni uch toifaga ajratadi. Birinchi toifa ishq – “ishqi om” ya’ni oddiy odamlarning bir-biriga bo’lgan muhabbatidir. Bu sevgining oliy cho’qqisi nikohdir, deydi shoir. Ikkinchi toifa ishq

⁸ Alisher Navoiy. Asarlar. 15-tom. Toshkent. 1968. 100-bet.

ishqi majoziy bo'lib, bu "Pok ko'zni pok nazar bilan pok yuzga solmoqdir". Ya'ni go'zallik oldida hayratga tushganda uning Yaratuvchisiga tahsin aytish, uning qudrati oldida lol qolmoqdir. Bu har qandayin buzuq niyat va hirs g'alayonidan holi bo'lgan nazardir. Uchinchi toifa ishq ahli esa "xoslar ishq"dir. Ya'ni, bunday kishilar xos hamda siddiq zotlar bo'lib, ularning yagona maqsadi Haq vasliga yetmoq. Bu yo'lda ular har qanday dunyoviy hoyu havaslardan voz kechadilar. Alloh jamolidan boshqa hech bir narsa ularni o'z yo'llaridan chalg'ita olmaydi. Yassaviy buni quyidagicha sharhlaydi:

Ishq maqomi turlik maqom – aqling yetmas,

Boshdin oyoq jabru jafu, mehnat ketmas.

Malomatlar, ihonatlar qilsa o'tmas,

Lomakonda Haqdin saboq oldim mano.

Xojamnazar Huvaydo ijodida ishq mavzusidagi asarlarni sinchiklab o'rganar ekanmiz, ularda dunyoviy ishq belgilariga ham duch kelamiz. So'fiy shoirning lirik qahramoni ba'zan real insonni, hayotdagi go'zalni, o'zini maftun etgan mahbubani kuylayotgandek tuyuladi. Shuning uchun ham o'quvchi lirik qahramonning tuyg'ulariga ishonadi, uning shodlik va qayg'ulariga sherik bo'ladi.

Huvaydoning lirik qahramoni bo'lgan oshiq esa o'z his-tuyg'ularini ta'sirli va ravon misralarga mahorat bilan singdiradi. Biz bu haroratli baytlar zamirida oddiy oshiqning qalb tug'yonlarini, samimiy sevgisini his qilamiz:

Ko'rgali husningni, jono, turfa zor o'ldum, darig',

Chun qafasda to'ti yanglig' intizor o'ldum, darig'.

Shoir lirikasida shunday hayotiy lavhalar ham borki, ularda oshiqqa jabr etuvchi, raqibga mehr ko'rgizuvchi an'anaviy bemehr ma'shuqa emas, balki o'z sevgilisiga sodiq, vafoli yor obrazi tasvirlanadi:

Qadam qo'ysang agar bu dam g'aribingni makoniga,

G'ubori maqdaming ko'zumda bo'lsun surmason mahfuz.

Visol damlarini ana shunday tarannum etgan lirik qahramon judolik alamlarini ham zo'r hasrat bilan kuylaydi. O'quvchi ko'z o'ngida suyuqli yoridan majburan judo etilgan, g'ussaga botgan oshiq obrazi jonlanadi.

Xayolimda yo'q erdi bevafoqa oshno bo'lmoq,

O'zimni kuydirib, hijron o'tig'a muftalo bo'lmoq.

Yuqorida aytilganidek, Huvaydo lirikasidagi hijron ohanglarini ham ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchisi asl mohiyatdan, Haqdan judo bo'lgan, uning vaslidan umidvor banda munojoti, ikkinchisi esa voqelikdagi real sevgilisidan ayrilib, g'arib holga tushgan, chorasizlikdan nola qilayotgan oshiq holatining lirik ifodasi:

Huvaydo, sanga man aytay nishoni bandalik uldur:

Balo kelsa bo'lib sobir, qazo kelsa rizo bo'lmoq.

Quyidagi baytlarda esa judolikdan shikoyat, hijron uqubatlari yanada ranginroq, fojialiroq, ta'sirchanroq aks etadi:

Ko'rmasam har dam yuzung, sho'ri qiyomatdur, mango

Shiddati ro'zi judolikdin qiyomat yaxshiroq.

Huvaydoning aksariyat ishqiy g'azallari yengil va xalqona bo'lib, ko'ngillarga tez yetib boradi. Uning lirik qahramoni ko'p hollarda hayotni sevuvchi, visol hamda baxt uchun tolmay kurashuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir fikricha, haqiqiy oshiq hol-ahvol so'raydigan, shirinzabon, go'zal, xushfe'l va samimiy yorni istaydi. Yor poyqadami yetsa, yuz yillar tuproq bo'lib yotsam ham tanamga ruh qaytib, abadiy hayot topaman, deydi shoirning lirik qahramoni:

O'shal sho'xi pari paykar agar o'tsa mozorimdin,

Hayoti jovidon topgum, agar sad sol bo'lsam xok!

Oshiq huzuriga mahbubaning tashrifi ham an'anaviy ta'rif-tavsiflardan holi, tabiiy, samimiy iboralarda bayon etilishi she'riy lavhalarining hayotiyiligini yanada oshiradi. Oshiq yor diydorini pinhon tutishni istaydi:

Qadam qo'ysang agar bu dam g'aribingni makoniga,

G'ubori maqdaming ko'zumda bo'lsun surmaso mahfuz.

Yor – ma’shuqaga lirik qahramon – oshiq nigohi bilan qaralganda u husnu jamolda shu qadar zeboki, mabodo u yuzidan pardasini olguday bo’lsa, uni butun olam ko’z bo’lib tomosha qilgisi keladi, oshiq unga jonini baxshida qilishga ham tayyor. Rivoyatlarda aytilishicha, Majnunning Layli ishqida telbalarcha yonib kuyayotganini eshitgan xalifa uni shu darajada rom etgan qiz g’oyat go’zal bo’lsa kerak deb o’ylaydi. Laylini saroyga oldirib kelsa, u oddiygina, qorachadan kelgan bir qiz ekan. Xalifaning hafsalasi pir bo’lib, Majnunni chaqirtiradi. “Ey nodon, sen dardida ohu nola chekib yurgan qiz mening oddiy kanizaklarimchalik ham husn egasi emas ekan-ku”, -deya murojaat qiladi xalifa Majnunga. Shunda Majnun: “Ma’shuqaga faqat oshiq ko’zlari bilan qarash kerak, shundagina u olamdagi tanho go’zalga aylanadi”, - deya javob beradi. Shunga o’xshash, Huvaydo lirik qahramoni ham o’z mahubasini haqli ravishda jahondagi eng zebo malak, jannat hurlaridan ziyoda, parilar bellasha olmaydigan hilqat deb biladi:

*...Jannatu huring kerakmasdur manga, to ko’rmsam
Gul yuzingni anda, ey ko’yi gulistoni aziz.*

*Ko’p pari ishq havosida, Huvaydo, bor edim,
Topmadim sendin, nigoro, g’ayri bir joni laziz.*

Xulosa qilib aytganda, Huvaydo lirikasida insoniy his-tuyg’ular ifodalangan, dunyoviy munosabatlar aks etgan she’riy lavhalar ko’pchilikni tashkil etadi. Binobarin, shoir adabiy merosini o’rganayotganda uning faqat ilohiy jihatlariga urg’u berish, fikrimizcha, bir yoqlamalikdir. Chunki, yuqorida ham ta’kidlanganidek, ilohiy ishq insoniy muhabbatning uzviy davomi, uni rivojlantiruvchi, kuchaytiruvchi pillapoyadir. Qolaversa, so’z san’atining o’ziga xos xususiyatlaridan biri ham uning ma’no jihatlarini serqirraligidadir. O’quvchi o’z bilim va tushunchalari, munosabati, dunyoqarashidan kelib chiqib, mumtoz adabiyot namunalari, xususan, so’fiy shoirlar ijodidan o’ziga yarasha hissa olaveradi.

An'anaviy mavzularga yangicha yondashuv tufayli Huvaydo haroratli va mumtoz asarlari hamda lirik she'riyati bilan jamiyatdagi har bir tabaqaning sevimli shoiriga aylangan, har bir muxlis uning otashin asarlarini o'zicha ko'ngil mulkiga aylantirgan. Yassaviy an'analarining izchil davomchisi bo'lmish Huvaydo adabiy merosining umrboqiyligi siri ham shunda deb o'ylaymiz.

2-fasl. Oshiq obrazi va komillik masalalari.

Tasavvuf ta'limotida ishq va oshiqlik haqida olimlar tomonidan bir qator maqolalar va risolalar yozilgan bo'lsa-da, biroq bu sohani mukammal o'rganilgan deb bo'lmaydi.. Shu bilan birga, tasavvufiy ishq va oshiqlik maqomi talqinlari tufayli turkiy she'riyatda o'ziga xos an'analar vujudga keldiki, bu an'analarni tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi.

An'ana masalasida so'z borar ekan, avvalo ushbu atamaning mohiyati va mazmuni haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lmoq lozim. An'ana, aslida qotib qolgan, bir qolipdagi hodisa emas, balki davrlar o'tishi bilan muvaffaqiyatli davom ettirilishi, yangi-yangi qirralari kashf etilishi lozim bo'lgan adabiy-estetik tushunchadir. An'ana badiiy adabiyotdagi o'lmas g'oyaviy asoslar bilangina cheklanib qolmaydi. Ijodkor uslubi, asarlari tili, adabiy usullari, syujet va obrazlari ham an'ana zaminidan oziqlanadi. Qolaversa, so'z san'atkori murojaat qilgan adabiy tur va janrlar ham an'ana tushunchasining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki, o'rta asrlar mumtoz she'riyati, xususan, tasavvufga oid adabiy meros haqida gap ketganda shakl va mazmun, g'oya va obrazlar, adabiy usul hamda vositalardagi an'anaviylik murakkab tus oladi. Biror qalam sohibining ijodiy mahsuli uning iste'dodi, ma'naviy-ruhiy olami, individual jihatlaridan kelib chiqib o'rganilmasa, uning yangiliklarini, mahoratini an'anaviylikdan farqlab olish qiyin. Chunki ijodkorning falsafiy-hayotiy, ijtimoiy-ma'naviy tushunchasi tor bo'lsa, hayotdagi voqea-hodisalarga faylasuf nazari bilan qaray olmasa, ulardan axloqiy xulosalar, falsafiy umumlashmalar chiqara olmasa, u tashqi ta'sir va taqlidchilikdan qutula olmaydi, nari borsa adabiy an'analarning shunchaki davomchisi bo'lib qolaveradi. Demak, Yassaviy maktabi izdoshlari, xususan, Xojamnazar Huvaydo adabiy merosini an'analar fonida o'rganilganda ana shu jihatlarni yodda tutish kerak.

Bizga qadar Yassaviydan "Devoni hikmat" nomli she'rlar kitobi saqlanib qolgan. Bu asar hamma zamonlarda barcha turkiyzabon avlodlarga manzur va

sevimli bo'lib kelgan. Chunki u insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo'lida fidoyilik, e'tiqodda sobitlik, halollik, poklikni targ'ib etib keldi. Kishilarni asl maqsad – Haqqa yetishmoq maqsadida mashaqqat-riyozat chekmoqqa, ma'rifat kasb etmoqqa, islomiy va dunyoviy ahkomlarni egallamoqqa chorladi.

Bugina emas, Yassaviy hikmatlarida oshiq obrazi orqali to'g'rilik, mehnatsevarlik, mo''min birodarlarga mehribonlik, insof, muruvvat g'oyalarini olg'a surgan:

*Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg'on,
Har kim topsa, rozi bo'lub, bo'yun sung'on.
Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.*

Huvaydo ijodiga turkiy she'riyatning atoqli namoyandalari –Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Mashrab va boshqalarning adabiy ta'siri bo'lganligi shubhasiz. Biz yuqoridagi fasllarda ishq mavzusining badiiy-tasavvufiy talqinlari asosida bu holni kuzatdik. Ahmad Yassaviy adabiy merosi Huvaydo uchun ham mahorat va tajriba maktabi bo'lganligi ham isbot talab qilmaydigan haqiqat. Chunki Huvaydoning bizgacha yetib kelgan she'rlarida Yassaviy ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin. Shuningdek, aynan Yassaviy yo'lida, uslubida, u qo'llagan o'xshatishlar orqali bitilgan she'rlar ham uning ulug' ustoziga bo'lgan ehtiromi sezilib turadi:

*Tiriklikni g'animat bil, yurakda bo'lsa gar darding,
Magar na o'lganing xushdur, yurusang g'aflat oludi.*

*Agar bilsang, bu dunyo domgohi nafi shaytondur,
Sangodur donayu dom, puxtau xom, har na mavjudi.*

*Amal qilmay, tilab dunyo, gunah g'arqobi bo'lguncha,
Xushi davlat emasmu, ey Huvaydo, o'lganing zudi.*

Shu singari g'azal va ruboiylar shoir va shayxning umr bo'yi to'plagan hayotiy tajribalari, falsafiy umumlashmalarining badiiy ifodasi, lirik bayonidir. Zero shoir oshiq timsolida komil inson idealini yaratishga umri davomida intilganligining ham muayyan sabablari bor. Huvaydo Hazratlari Yassaviy an'alarining sobitqadam izdoshi sifatida turli janrlardagi asarlarida vahdat, komillik masalalariga ko'p marta murojaat qilgan.

Inson qalbini Ka'badek tavof qilishga undagan shoir mashhur qit'alaridan birida aytadi:

*Bir g'arib ko'nglini shod aylasang
Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq abas.*

Yoki:

*Berma dunyoga ko'ngil, hech kimga qilgan yo'q vafo
Kim ko'ngil berdi anga, bo'ldi Xudodin bexabar.*

Xudodan bexabarlik – ma'naviy noqislikdir. Chunki barcha ezgu amallar, xayrli ishlar Haq rizoligi yo'lida amalga oshirilmog'i kerak. Aks holda inson riyo sari yo'l tutadi, ma'naviy tubanlashib ketadi. Shoir yuqoridagi misralari bilan olam-olam ma'nolarni ifodalab, eng sharif mavjudot – Insonni kamolotga erishishga da'vat etgan. Darhaqiqat, qisqa umr davomida kamolotga intilgan, vaqtni zoe ketkazmagan odam bu dunyoga kelganidan pushaymon bo'lmaydi. U o'zining ichki imkoniyatlari, ma'naviy olami qirralarini namoyon etib, barkamollik sari yuz tutadi.

Komil inson, shu tariqa, ulug' shayx va shoir adabiy merosining yetakchi obraziga, asosiy qahramoniga aylanadi. Uning orzu-armonlari, intilishlari, kurashlari, dardi, tashvishi, mavjud olam haqidagi tasavvurlari Huvaydo ijodida badiiy tadqiq ob'ektiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shoir o'z davri qarashlari va tushunchalari asosida Insonni ulug'lar ekan, tasavvuf tariqati bu borada unga eng qulay vosita bo'ldi. Chunki tasavvuf, uning ilohiy va dunyoviy g'oyalari nafaqat Yassaviy maktabi namoyandalarining, balki barcha so'z san'atkorlarining ham ilhom manbai, o'zining hur fikrlarini ifodalash vositasi bo'lganligi shubhasiz. Shu sababli ham Huvaydo ijodidagi insonning ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan

barkamolligi shoir lirikasining ham, “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” singari epik asarlarining ham yetakchi g’oyalaridan biridir.

Modomiki, Inson Haq sirlarining mumtozi ekan, u turli illat va nuqsonlardan xoli bo’lmog’i lozim. Insonni insoniylikdan chiqaradigan, uni to’g’ri yo’ldan ozdirib, beburd qiladigan xususiyat – bu kibr va manmanlik, nafs hamda xudbinlikdir. Insonning o’zligini anglashi, ma’naviy barkamollik sari intilishi lozimligi shoir adabiy merosining yetakchi mavzularidan biridir.

***G’aribni ko’nglini buzmak gunohi beadam ermish,
Kaforat bo’lmag’ay yuz Ka’bani qaytib bino qilsang***

baytidagi mazmun-mohiyat Ahmad Yassaviyning:

***Sunnat ermish kofir bo’lsa, berma ozor,
Ko’ngli qattig’ dilozordan Xudo bezor...***

***Xayru sano qilg’onlar, yetim ko’nglin olg’onlar,
Chahor yorlar hamrohi kavsar labinda ko’rdim.***

***Zolim bo’lib zulm etgan, yetim ko’nglin og’ritgan,
Qaro yuzlug’ mahsharda qo’lin arqoda ko’rdum***

misralaridagi dasturiy yo’llanmalarning davom ettirilishi, yanada yuksaklikka ko’tarilishidir deb baholash mumkin.

Uning lirik asarlarida esa Inson kamoloti g’oyasi tasavvuf tariqatida belgilangan so’nggi bosqich – Haq vasli bilan bog’lanadi. Lirik qahramon ma’lum doiradagi diniy e’tiqod bilangina cheklanib qolmaganligi uchun uning kechinmalari, tasavvur va tushunchalarini keng va atroflicha bayon etishga imkon tug’iladi. Chunki bosh maqsad Haqqa yetishmoq ekan, komil inson bunga chin e’tiqod, iymon mustahkamligi orqali erishmog’i mumkin. Buni shoir g’azallaridan birida shunday bayon etgan:

***Ey Sani vohidligingga kimki iqror o’lmasa,
Man ani kofir bilurman, loyiqi iymon emas.***

Ya'ni, Yaratguvchining biru borligiga inson til va dil birligi bilan iymon keltirmog'i kerak.

Demak, Inson qaysi din va mazhabda bo'lishidan qat'iy nazar Haq yo'lida komil bo'lishga intilsa, u haqiqiy insondir. Shoir ko'ngilda ta'ma bilan, ya'ni do'zax azobidan qutulish ilinjida yoki jannatga tushish orzusida Yaratganga ibodat qilishni yoqlamaydi.

Komillikka da'vogar inson kibru havodan, minnatdan, riyodan xoli bo'lmog'i lozim. Shundagina insonning ruhiy dunyosi poklanadi, haqiqiy ulug'vorlik kasb etadi. Aks holda:

***Dunyo mening degonlar, jahon molin olgonlar,
Karkas qushdek bo'lubon ul haromg'a botmishlar.***

Yassaviy boboning ushbu xulosasi Huvaydo hazratlari tomonidan davom ettirilib, jahonga sig'maganlar ajal domiga uchragach, uch gazgina yerni quchib yotibdilar deya yanada ta'sirli ifodalanadi:

***Man-man dedilar sig'madilar ushbu jahonga
Ko'rgilki ani uch qarich yerni quchib o'tdi.***

Ushbu bayt zamiriga ulkan ma'no yashiringan. Rivoyatlarga ko'ra, Shayton aslida Haq dargohida muhtaram zot hisoblangan. Ollohga yetmish ming yil ibodat aylab, farishtalar sarvariga aylangan. Ammo birgina manmanligi, kibru havosi bilan, ya'ni tuproqdan yaralgan Odamga past nazar bilan qaraganligi uchun abad-ul abad tavqi la'natga duchor bo'lgan. Natijada shayton insonni yo'ldan urguvchi, nafs vositasida uni Haqdan adashtirguvchi obrazga aylangan. Ana shu mazmun Huvaydo she'riyatida keng qamrovli badiiy sharhini topgan.

***Agar bilsang, bu dunyo domgohi nafsi shaytondur,
Sangodur donayu dom, puxtau xom, har na mavjudi.***

Yoki:

***Ey Huvaydo, suymag'il g'ayr az Xudodin o'zgani,
Zarra sud etmas sanga Qoruncha yig'sang mulku mol.***

Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: nisbatan qisqa umr ko'radigan Insonga o'tkinchi dunyoda kibr va manmanlikning, mol-dunyoga bino qo'yishning qanday nafi bor?!

Xudbinlikni qoralash, samimiylik va o'zgalarga hurmat bilan qarashni yoqlash, kamtarinlikka undash orqali ham Huvaydo odamlarni barkamollik kasb etishga da'vat etadi. Hatto Islomda botil hisoblanib, qoralanuvchi butparastlik ham xudparastlik (egoizm) va manmanlik oldida gunoh sanalmay qoladi:

Oxirat fikrini qildi mardumi hushyorlar,

“Man falon” deb yurdi nodon o'zini pardoz etib.

Huvaydo nazarida komillikning yana bir belgisi qanoatli bo'lmoqdir. Chunki qanoatli kishi yuqorida aytilgan kamchilik va qusurlardan osonroq qutuladi. Negaki, u boru yo'qqa sabr etadi, o'zining to'kis yashashi uchun boshqalarni zor qaqshatmaydi. Bechorahol yashasa-da, o'ziga to'qlarga hasad qilmaydi. Bu mavzuda ulug' ustoz Yassaviyning:

...Bu dunyoda faqirlikni odat qilgan,

Xorlik tortib mashaqqatni rohat bilgan,

Qul Xoja Ahmad yaxshilarga xizmat qilgan

Qiyomat kun andoq kishi sulton bo'lur,

singari o'gitlarini yangi davr ruhi bilan boyitadi, obrazlilikni kuchaytiradi, manmanlik qanoat hamda faqirlikni yemiruvchi iblisona kuch ekanligini badiiy ifodalaydi:

...Falon ibn falonman demaging sandin ajab odam,

Borur yering qaro tufroq, agarchi ibn xoqonsan.

Hama ish kori bekori, faqrlik ixtiyor aylab,

Xudoni yodida bo'lsang qiyomat bo'lsa sultonsan,

Tama' qilma kishidin yig'nae, qaddi yamin qilg'il

Durustlik birla kasbing qil va yo mardi dehqonsan.

Shoirning lirik she'rlarida komillikka da'vat etuvchi ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan namunalar ko'plab topiladi. Ularni mutolaa etar ekanmiz, insonparvarlik shoirning bosh maqsadiga, Inson yetakchi obrazga, uning barkamolligi esa asosiy g'oyaga aylanganini kuzatishimiz mumkin.

Komillikka da'vat, barkamol inson muammosi Huvaydoning "Rohati dil" dostonida ham mukammal badiiy sharhlarini topgan. Epik asarlarning imkoniyat darajasi, o'quvchilar doirasining kengligi, turli yoshdagi kitobxonlar ommasi uchun tushunarli bo'lganligi sababli shoir va shayx barkamollik mavzusi, komillik muammolarini ana shunday asarlarida batafsilroq yoritgan.

Xulosa qilib aytganda, Huvaydoning qoldirgan boy ma'naviy merosi mumtoz adabiyotimiz tarixida, xalqimizning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri rivojida alohida o'rin tutadi.

X U L O S A

Xojamnazar Huvaydo XVIII asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, mutasavvif shoirdir. U o'zining mashhur o'tmishdosh-salaflari Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyorlar yo'lidan borib, asarlarida ilohiy ishq, oliyjanob insoniy fazilatlarni, halollik, poklik, rostgo'ylik, diyonatlilik, insonparvarlik, saxiylik, kamtarinlikni ulug'ladi, ma'naviy kamolotga erishishda diniy qadriyatlarning o'rniga alohida urg'u berdi.

Shu bilan birga shayx va shoir inson xulq va atvoridagi diyonatsizlik, iymonsizlik, kazzoblik, xasislik, molparastlik, manmanlik, nopoklik singar illatlarni keskin va muttasil qoraladi.

Tabiiyki, muayyan davrga mansub badiiy adabiyot namunalari o'sha davr jamiyatining ma'naviyati, adabiy-estetik didi, kishilarning dunyoqarashlari, orzu-umidlarini ham belgilaydi. Bu esa so'z san'atkoridan o'zi mansub bo'lgan ana shu davr didi va talabiga yarasha ijod qilishini taqozo etadi. Shuning uchun ham Huvaydo ijodida lirikaning o'rni, u murojaat qilgan lirik janrlar tabiati, qalamga olgan mavzulari, g'oyalari hamda falsafiy umumlashmalarini tahlil etishda yuqoridagi omillarni ham inobatga olmoq zarur.

Huvaydo nisbatan murakkab va ziddiyatli davrda yashab, ijod qildi. U diniy rahnamo bo'lishiga qaramasdan badiiy ijod bilan muttasil va muntazam shug'ullanishga vaqt topa oldi. Xojamnazar Huvaydo xalq orasidagi mavqeidan kelib chiqib, jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalar guvohigina emas, bevosita ishtirokchisi bo'lishga ham majbur edi. Bu esa uning adabiy mahsulida ijtimoiy voqelikdagi hodisalarni lirik bayon etishnigina emas, ulardan falsafiy-axloqiy xulosalar chiqarishni ham taqozo etardi. Shoir ijodida ham dunyoviy, ham ruhoniylarining motivlarning parallel uchrashi, voqea-hodisalarga ham shoir, ham oddiy inson, ham ruhoniylarining ham mutasavvuf sifatida munosabat bildirishi sababi ham shunda.

Shoir bir tomondan, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy singari ulug' salaflarining munosib izdoshi bo'lishga intildi. Ikkinchi tomondan, Yassaviyning g'oyibona muridi va shogirdi sifatida tasavvuf g'oyalarini o'zida aks ettiruvchi

hikmatlarga hamohang she'rlar yaratdi. Ikki xil yo'nalishning bir shoirda mujassam bo'lishi adabiyotimiz tarixida kamyob hodisa. Shunga qaramasdan, Huvaydo hazratlari ham mumtoz shoir, ham yetuk mutasavvuf sifatida adabiyotning nodir namunalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Huvaydo hayoti va ijodi xususidagi tadqiqotlar Istiqlol sharofati bilan endigina jonlana boshladi. Biz hozircha ushbu nodir siymoning hayoti va adabiy faoliyati haqida fundamental tadqiqotlarni kutmoqdamiz. Ammo qisqa fursat ichida keng kitobxonlar ommasi shoirning adabiy merosi, uning xalqimiz ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan o'rni haqida tasavvurga ega bo'la boshladi. 1997 yilda shoir va shayx yubiley sanasi keng nishonlanishi, 2007 yilda nisbatan mukammal bo'lgan she'rlar devonining ko'p nusxada nashr etilishi adabiy-madaniy hayotimizda unutilmas voqea bo'ldi.⁹

Huvaydo ijodida kuchli namoyon bo'ladigan hasbi hollik, ya'ni tarjimai holga oid, shaxsiy hayot bilan bog'liq holatlarning badiiy ifodasining o'ziyoq uning murakkab va ziddiyatli taqdiri, umr yo'li, dunyoqarashi, qolaversa, badiiy ijodga nisbatan pozitsiyasini oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Xojanazar osiyga qo'ydim Huvaydoni laqab,

Bul g'aribi mustamandni shahri Chimyondin tila,

deydi shoir g'azallaridan birida.

Biz mazkur bitiruv-malakaviy ishimizda Huvaydo lirikasining janr xususiyatlari, mavzular ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, an'analarga munosabati, poetik mahorati masalalarini yoritishga intilar ekanmiz, ko'proq uning o'ziga – ya'ni u qoldirgan, bizga ma'lum bo'lgan va yaqin kunlarda nashr etilgan adabiy merosiga tayandik.

Bahor faslidakim mavsumi ishrat emish,

Piyola sunki, bu dam, soqiyo, g'animat emish.

Na ul qadahki, xumori sado' kelturgay,

Na ul piyolaki, labrez obi hasrat emish

⁹ Xojanazar Huvaydo. Devon. Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2007.

singari sodda, ammo otashin misralarda Umar Xayyom falsafasi, Lutfiy xalqonaligi, Bobur mardligi uyg'unlashuvi bir tomondan uning yuksak iste'dodidan darak bersa, ikkinchi tomondan, suratda diniy rahnamo, siyratda darvesh kishining, o'zi mansub bo'lgan jamiyat noqisliklaridan ozurda insonning nolalarini ham his etamiz:

*Ko'z yumub to ochqucha yer birla yakson bo'ldilar,
Saltanat taxtidagi man-man degon shohu amir.*

*Mahv bo'ldilar qiyomat zomini aylab sitam,
Qancha sud etti jahondin, yeb alar moli faqir.*

*Molu pul, farzandu zan deb bo'lma Haqdin bexabar,
Tongla joningga oro kirmas alar, ey shobu pir.*

Shundan kelib chiqib, biz mazkur izlanishlarimizda shoir va shayx lirikasining o'ziga xos jihatlarini an'anaviylik fonida oydinlashtirishga harakat qildik. Ammo, shunisi ham borki, lirik turning har bir janri voqelikni ifodalashda o'z imkoniyati, ifoda yo'sini, shakliy belgilari va xarakteriga ko'ra bir-biridan sezilarli farq qiladi. Shuni nazarda tutib, mazkur ishimizda Huvaydo lirik merosining asosini tashkil etuvchi g'azal, ruboiy singari janrlarga ko'proq e'tiborni qaratdik. Shoirning Yassaviy hikmatlariga hamohang ijod namunalarini ham o'rni bilan tahlilga tortdik.

Aytmoqchimizki, Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo nomi bilan ko'p asrlar xalq tomonidan e'zozlab o'qilgan, yaqin o'tmishda nomi qoralangan, o'rganish taqiqlangan ushbu siymoning adabiy merosi, xalqimiz ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi o'zining munosib bahosini olmog'i kerak. Chunki Huvaydo she'rlari o'zbek mumtoz adabiyotida Ahmad Yassaviydan boshlangan ma'rifiy-axloqiy, dunyoviy-ilohiy g'oya va mavzularni muvaffaqiyatli davom ettirgan, rivojlantirgan, davr ruhini yangilagan adabiy hodisadir. Shuning uchun shoir va shayx qoldirgan adabiy meros o'zining yuksak badiiyati, ulkan axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan hamisha e'tiborni tortib kelgan.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2007.
2. Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. I-IV jildlar. T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1991-1992.
3. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiyya. T.: Mehnat. 1991.
4. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.: 1991.
5. Abdulla Oripov. Munojot. Saylanma. T.: 1992.
6. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri. T.: Adolat. 2006.
7. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston. 1993
8. Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar. T.: "Fan". 2007
9. Jamol Kamol. Lirikalar. T.: "Fan" 1986.
10. Jo'raev H. Lirikada an'anaviylik va o'ziga xoslik. T.: 2004.
11. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: "Fan" 1993.
12. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha. T.: "Mumtoz so'z". 2008.
13. Komilov N. Tasavvuf. (1-kitob). T.: 1996.
14. Muhammad Huzariy. Nur-ul yaqin. T.: Kamalak. 1992.
15. Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. T.: 1999.
16. Nosirov O. va boshqalar. O'zbek klassik she'riyati janrlari. T.: 1978
17. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: "O'qituvchi". 1980.
18. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboev talqinida). T.: 2008.
19. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. T.: "Movarounnahr" 2004.
20. Shukur Qurbon. Sizni xudo yetkazdi. T.: 1995
21. Farididdin Attor. Tazkirat-ul avliyo. T.: 1997.
22. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. T.: 2009
23. Huvaydo. Devon. T.: "Yangi asr avlodi". 2007.
24. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1990.
25. Haqqul I. Ahmad Yassaviy. T.: 2001.
25. Homidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. T.: 2004.

MUNDARIJA

K i r i s h.....	3
1 BOB. Tasavvuf va adabiyot.	
1-fasl. Islomiy qadriyatlarning so'fiylik talqinlari.....	9
2-fasl. Huvaydo - Yassaviy izdoshi sifatida.....	16
II BOB. Shoir ijodiining mavzular ko'lami.	
1-fasl. Ishqning badiiy-falsaiy talqinlari.....	24
2-fasl. Oshiq obrazi va komillik masalalari.....	36
X u l o s a	43
Foydalanilgan adabiyotlar.....	46
Ilovalar.....	48

1-ilova. Huvaydo ijodida oshiqlik va ishq bosqichlari



2-ilova. **Huvaydo she'riyatida oshiq obrazining qiyosiy qahramonlari**

